

BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'QITISH METODLARINING O'RNI

Mamayusupova Santalat Botoshovna

*Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani 29-umumiy o'rta
ta'lim mактабining voshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda o'qitish metodlarining o'rni, boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqish va qobiliyatlarini o'qituvchining pedagogik hamda psixologik mahorati orqali rivojlantirish, boshlang'ich ta'linda o'qitish metodlarining muhim jihatlari to'g'risida to'liq bayon qilingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qitish metodlari, pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, interfaol o'yinlar.

Kirish:

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisiga xos bo'lgan sifatlarni rivojlantirishda asosiy o'rinni tutadi. Hozirgi tezkor davr ta'lim oluvchilar, shu jumladan o'quvchilarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan ta'minlash, ular tomonidan turli fan asoslarini chuqur o'zlashtirilishi uchun kerak shart-sharoitlarni yaratishni taqozo qilmqoda. Maktablarda boshlang'ich ta'lim pedagog-o'qituvchilaridan pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi masalasi jiddiy ahamiyatga ega, sababi ta'lim muassasasining faoliyatiga pedagogik texnologiyalarlarning joriy qilinishi – maktab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish va isloh qilishning eng asosiy shartidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Hozirgi vaqtga ta'lim jarayonida keng foydalanilayotgan axborot texnologiyalari o'quv jarayonini harakatlantiruvchi kuch yoki oldindan belgilab qo'yilgan aniq maqsad yo'lida o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'linda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasidir. Bundan aniq ko'rinish turibdiki, natija maqsadga qancha yaqin bo'lsa, o'quv-tarbiya jarayoni shuncha samarador sanaladi va bu ta'larning zamonaviy texnik vositalari va ilg'or texnologiyalarni amalga oshirishning asosiy jihatlaridan bo'lib, ikkinchi talqin, ta'lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o'rganish, qayd etish yo'llari bilan o'qituvchining kafolotlangan natijaga erishishini ta'minlash.

Binobarin, ta'lindan muhim maqsad o'quvchilarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ularni ta'lim jarayonining faol qatnashuvchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda boshlang'ich ta'linda

o'qitish tizimini rivojlantirish, darslarni jahon andozalariga mos tarzda tashkil etish o'quvchi faolligini oshiradigan asosiy omillardan sanaladi.

Natijalar:

Boshlang'ich sinfda ta'lism Samaradorligi ta'lism printsiplariga rioya qilish bilan birga ta'lism metodlari va usullarini to'g'ri tanlashga ham bog'liq. Metod - muayyan maqsadga erishish, aniq vazifani bajarish usuli, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish usullari jamlanmasi. Metod tushunchasining pedagogik ma'nosi bilim, ko'nikma, malakalar bilan ta'minlash va ularni amaliyotda foydalanish demakdir.

Boshlang'ich ta'limga pedagogik tizimning tarkibiy elementi sanalgan o'qitish metodi mazkur jarayonni natijasini-ya'ni mashg'ulotning maqsadini ta'minlashda asosiy sanaladi. Mashg'ulotlar jarayonida pedagogik texnologiyalarning samarali joriy qilinishi ta'lism jarayonida ta'lism oluvchilarning mustaqil faoliyat yuritishiga olib keladi. Ma'lumki, pedagogik texnologiya ta'lism mohiyati usul, shakl va vositalar yordamida yuzaga keladi. Mazkur jarayon kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltiriladi.

Muhokama:

Ta'limga hamma jihatlarini shunday tashkil qilish joizki, u ta'lism oluvchilarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Sababi ta'lism jarayonida o'quvchida mustaqil bilim olish ehtiyoji rivojlanib borishi bugungi kunning talabidir. Demak pedagogik texnologiyaning muhim masalasi - ta'lism oluvchilarni bilimlarini takomillashtirish yordamida ta'lism maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

O'qituvchi dars jarayonida maxsus tayyorlagan multimediali ilovalardan, videolavhalardan, turli animasion materiallardan foydalanib, o'quv jarayoni tashkil etilganida, o'quvchilarning amaliy va nazariy bilimlarini tafakkur va tasavvurlarini rivojlantirishda mavzuga bo'lgan qiziqishlarini va qobiliyatlarini shakllantirishini orttiradi va tez anglab olishlariga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, dars mobaynida o'quvchilar charchab qolmasligi va zerikmasliklari uchun interfaol o'yinlar tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lism jarayoniga tadbiq etishni zamonaviy axborot dunyosining rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb xarakterlash mumkin. Kompyuterlarning o'quv jarayoniga jadal kirib kelishi pedagoglar hayotida misli ko'rilmagan darajada o'qitishning yangi turlarini va metodlarini, shakllarini keltirib chiqardi. Boshlang'ich ta'limga axborot texnologiyalaridan foydalanish ikkita muhim masalani yechish bilan bog'liq: o'quvchilarimizni yangi texnikaviy vositalardan foydalanishga o'rgatish va o'quvchilarning o'qish va o'qishdan tashqari faoliyatida yangi imkoniyatlarini ochish va shakllantirish maqsadida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Avliyoqulov N.X. "Zamonaviy o'qitish texnologiyalari" -Toshkent, 2001.
2. Selevko G.K. Zamonaviy ta'lismi texnologiyasi: darslik. - M.: Xalq ta'limi, "Boshlang'ich ta'lismi" jurnali. 2004.
3. Jabborova O.M. Boshlang'ich ta'lismi metodikasining yangi nazariy masalalari. -T.: "Zebo print", 2022.
4. O.Davlatova boshlang'ich ta'limda integrativ ta'lismi metodlari // Scientific progress. 2021.
5. Sardor A., Nafosat A. ta'lim jarayonida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish yo'llari //journal of innovations in scientific and educational research. -2023.